



UDK: 811.512

*Sarvar KARIMOV,*

*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: karimov.sarvar.fayzullayevich@gmail.com*

*FarDU professori, t.f.d M.Isamiddinov taqrizi asosida*

#### ETYMOLOGICAL ANALYSIS AND HISTORICAL ORIGINS OF THE TOPONYM QUVASOY

Annotation

The article examines the origin, historical development, and linguistic study of the toponym Kuvasay. Various theoretical perspectives on the term "Kuva," including its semantic and geographical aspects, are analyzed. In addition, the use of the term "soy" in Turkic languages is explored, and the semantic foundations of the toponym are revealed. The findings highlight the historical, ethnographic, and cultural significance of the name Kuvasay.

**Key words:** Kuvasay toponym, the terms "Kuva" and "soy", hydrotponym system, linguistic analysis, etymological research, history of ethnonyms.

#### ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ТОПОНИМА КУВАСОЙ

Аннотация

В статье рассматривается происхождение, историческое развитие и лингвистическое исследование топонима Куvasай. Анализируются различные теоретические взгляды на термин «Кува», его семантические и географические особенности. Кроме того, изучается употребление термина «сай» в тюркских языках и раскрываются семантические основы и происхождение топонима «Куvasай». Результаты исследования показывают историко-этнографическую и культурную значимость названия Куvasай.

**Ключевые слова:** Топоним Куvasай, термины «Кува» и «сай», система гидротпонимов, лингвистический анализ, этимологические исследования, история этнонимов.

#### QUVASOY TOPONIMINING ETIMOLOGIK TAHLILI VA KELIB CHIQISHI TARIXI

Annotatsiya

Maqolada Quvasoy toponimining kelib chiqishi, tarixi va tilshunoslik jihatdan o'rganilishi tahlil qilingan. "Quva" atamasiga oid turli nazariy qarashlar, uning ma'no va geografik jihatlari solishtirma tahlil qilingan. Shuningdek, "soy" atamasining turkiy tillardagi qo'llanilishi o'rganilib, toponimning semantik asoslari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Quvasoy nomining kelib chiqishi, tarixiy-etnografik va madaniy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Quvasoy toponimi, "Quva" va "soy" atamasi, gidrotponimlar tizimi, tilshunoslik tahlili, etimologik izlanish, etnonimlar tarixi.

**Kirish.** O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o'zlik, tarixiy meros va madaniy qadriyatlarga munosabat yangi bosqichga ko'tarildi. Tarixga xolis, ilmiy asosda yondashish, ayniqsa, xalqning madaniy-xotirasi ifodasi bo'lgan toponimlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Toponimlar xalq tarixi, tili va etnik o'zining muhim manbai sifatida milliy ozlikni anglash va tarixiy adolatni tiklashda katta rol o'ynaydi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "O'z tarixini unutmagan, ajdodlari xotirasini e'zozlab yashaydigan xalq hech qachon kam bo'lmaydi"[1] degan fikri tarixiy nomlar va madaniy merosni ilmiy o'rganishga yangicha, mas'uliyatli yondashuvni belgilab berdi. Shu bois, joy nomlarini tahlil qilish — geografiya, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan muhim yo'nalishdir.

Farg'ona vodiysida joylashgan Quvasoy toponimi o'zining etnolingvistik xususiyatlari, semantik mazmuni va tarixiy ildizlari bilan tadqiqotchilar e'tiborini tortadi. Nom etimologiyasiga doir mavjud talqinlar hududning tabiiy-geografik muhiti, tarixiy aholi qatlamlari va madaniy jarayonlari bilan bog'liq ravishda shakllangan. Mazkur maqolada Quvasoy toponimining kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlar hamda nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, uning lingvistik, tarixiy va madaniy qatlamlari ochib beriladi.

Toponimning tarixiy-qiyosiy jihatdan o'rganilishi va milliy-madaniy merosdagi o'rnini belgilash zamonaviy toponimikaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Toponim etimologiyasini o'rganishda P.B.Lurye, N.A.Baskakov, O.T.Molchanova, E.M.Murzayev, G.I.Donidze, S.Qorayev, Yu.I.Ahmadaliyev, H.Hasanov, N.Oxunov, Sh.S.Kamoliddin, K.Sh.Shoniyo'zov va boshqa [2] olimlarning ishlariga tayanildi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari ham foydalanildi. Metodologik asos sifatida qiyosiy-tarixiy tahlil va etimologik tadqiqot usullari qo'llanilib, gidronim va gidrooykonimlar nomlanishini aniqlashda N.Oxunov taklif etgan guruhlash usuli asosida tahlil amalga oshirildi. Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Quvasoy toponimi keng qamrovli til, tarix va geografiya sohalarining kesishuvida yuzaga kelgan joy nomi bo'lib, u umumturiy leksik qatlamning muhim qismi hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Dunyodagi suvlik bilan bog'liq bo'lgan geografik obyektlar-gidronim (yunoncha, "gidro" - suv, namlik va "onim" - nom, ism) deb ataladi. Tabiiy holdagi va inson qo'li bilan yaratilgan har qanday suv havzalari, jumladan, okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, daryolar, soylar, kanallar, - ko'llar, suv omborlar, quduqlar, buloqlarga

quyilgan atoqli otlar gidronimlardir. Farg'ona viloyati toponimiyasida suvga aloqador bo'lgan joy nomlari keng tarqalgan. Viloyatdagi mavjud o'n olitma ma'muriy tumanlardan beshtasi Beshariq, Oltiariq, So'x, Uchko'prik, Quvasoy kabilar gidronimlardan olinganligini qayd etish mumkin [3].

Quvasoy toponimini izohlashda, avvalo, uning tarkibiy qismi bo'lgan "Quva" atamasi va uning etimologiyasiga to'xtalish zarur. Quva-bu shahar nomi bo'lib, dastlab «Hudud al-olam»da so'ngra arab geograflaridan Istarxiy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Quba shaklida qayd qilingan. O'rta asrlarda Quva alohida viloyat poytaxti bo'lgan va Farg'onada Axsikentdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. "Boburnoma"da Qubo shaklida tilga olinib, Andijondan 4 og'och (farsax) narida joylashgan qishloq deb aytilgan bo'lsada, etimologiyasi aniq emas.

Lekin, quba (quva) degan etnonim bo'lgan. Etnograf K.Sh.Shoniyozov o'rta asrlarda qipchoqlar tarkibida mustaqil quba (quva) qabilasi bo'lgan deydi. Quba (quva) –umumturkiy etnonim. Qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibida quba degan yirik urug' bo'lgan. Ozarbayjondagi Quba, Qubali, Qubaderesi, Turkmanistonda Qubatog', O'zbekistondagi Quva kabi toponimlar quba etnonimidan nom olgan bo'lsa ajab emas. [4].

Manbalarda ko'p bor tilga olinadigan Quva shahri yuzasidan Is'hoqxon to'ra Ibrat shahar etimologiyasini Qubod, ya'ni Anushervonning o'g'li Kubodga talqin etilishini eslatadi [5]. Sh.S.Kamoliddin, Quvani turkiy Kuba [6] deb qayd etsada, ammo izohlamaydi. Hatto Quva shahri xitoy manbalardagi Xuminga tenglashtiriladi. Bu atama Sh.S.Kamoliddin turkiy "ko'mir"ga taqqoslagan. Ammo Xumin atamaning xitoycha talaffuz varianti ekanligi esdan chiqarimaslik kerak[6]. P.B.Lurye esa atama etimologiyasiga turkiy quba – och qo'ng'ir (ot) mazmunini faraz sifatida keltiradi [7]. A.Otaxo'jayev esa Kubo (Quva) – kuba (kübä) atamasi qadimgi turkiyda "metall kiyim, sovut" ma'nosida bo'lib, ehtimol bu shaharga soha hunarmandlari asos solgan bo'lishi mumkinligi haqida farazni ilgari suradi [8].

"Quba", "Kuba" so'zlari ko'pgina turkiy xalqlarning lingvistikasida o'z aksini topgan bo'lib, ularning etimologik tahlili turkiy tillar tizimidagi umumiy qoidalar va tarixiy-dialektologik aloqalar bilan bog'liq. Bu so'zlar turkiy xalqlarning madaniy, ma'muriy va hududiy tarkibiy tushunchalarini ifoda etuvchi asosiy topoformantlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

"Kuba" sifati o'rganilayotgan hududning bir nechta geografik nomlarida qayd etilgan: Kuba daryosi, Kuba-Tuu daryosi va boshqalar. G. Clauson [9] bo'yicha, "Kuba" so'zi quyidagi ma'nolarni anglatadi: "kuba" - rangpar, och sariq, och kulrang; ot yoki sigir haqida - sichqonrang, kulrang-jigarrang tusli; odam haqida esa - oq badanli, ochroq tusli. N.A.Baskakov [10], tuba lahjasi uchun "kuba" so'zini ko'k rang ma'nosida, "kuva" so'zini esa yalang'och ma'nosida keltiradi, masalan, "kuva chol" - yalang'och dasht ma'nosini bildirgan. Qadimgi turkiy tilda "quba" qizil va sariq orasidagi rangni anglatgan va "quba at" och jigarrang, saman ot ma'nosini bergan. Qirg'izchada "kuba" oq, rangpar, kulrang; qoraqalpoqchada "k'uba" rangpar, oqish, malla sochli; xakascha "xuba" rangpar, och sariq, och qizil, och jigarrang; "xuba inek"—och qizil sigir, "xuba chalaas" moviy, "xuba chazy" esa oq dasht (V.V.Radlov talqinida kulrang dasht) degan ma'nolarni beradi. Tuvachada "xuvalla" yoki "xuva" saman rangni ifodalaydi. Yakutsk, kuba - oqish, kulrang; manchjurcha x'uba— qahrabo (oq); yozma-mo'g'ulcha xuba(n)- 1) qahrabo; 2) qahraboga oid; 3) och sariq; mo'g'ulcha xuv(an), buryatcha xuba- 1) qahrabo; 2) qahraboga oid; 3) och sariq, xuba xermen — qari urg'ochi olmaxon, xuba shargal —sarg'ish tusli echki; qalmoqcha xuv - qahrabo, qahraboga oid[11]. Shunday qilib, kuba gidronimlar uchun oqish, och sariq, och kulrang, och kulrang, yorqin;

sichqonsimon; loyqa ma'nolarini anglatishi mumkin. Oronimlar uchun esa oqish, kulrang, kulrang-jigarrang, och sariq bilan bir qatorda, o't-o'lansiz, yalang'och ma'nolarini ham anglatgan bo'lishi ehtimolga yaqin.

Turkiy topoformantlar ("formant" -lotincha "formans"- hosil qiluvchi) - qadimgi turkiy toponimlar turkiy lug'at tarkibidagi geografik obyektlar yoki aholi manzilgohlarini ifodalash uchun qo'llanilgan alohida so'zlardan iborat topoformantlar yordamida yasalgan. Suv havzalarini ifodalashda o'g'uz, suv, dengiz, ko'l, soy kabi so'zlar, tog'larni ifodalashda tog' va art, cho'llarni ifodalashda esa qum so'zi ishlatilgan [11].

Olimimiz Sh.S.Kamoliddin "Drevnyeturkskaya toponimiya Sredney Azii" asarida "soy" atamasiga izoh bergan [11]. Qadimgi turklar kichik tog' daryolarini toshloq bilan belgilash uchun say (saj) – "qora toshli yer", ya'ni "toshloq joy" so'zidan foydalanganlar [12], bu so'z zamonaviy geografik nomenklaturada ham ko'pincha "qurigan daryo o'zani," "shag'al," "qayir" ma'nolarida ishlatiladi [13], Sirdaryo havzasidagi Sayram (yoki Saryam) shahrining nomi [14] "sayozlik," "sayozlik" ma'nolarini anglatadi [15]. Tyan-Shan tog'larida o'rta asrlarda Oqsoy degan joy tilga olinadi [14].

Shuningdek, qadimgi turkiy xalqlarning "soy" so'zining turkiy tillar orasidagi leksik va semantik yaqinligi uning umumturkiy leksik qatlamga mansubligini tasdiqlaydi. Ushbu so'zning toponimlardagi keng qo'llanilishi xalqlar o'rtasidagi tarixiy aloqalar, umumiy til manbalari va gidrografik tushunchalarni o'z ichiga olgan til-madaniy merosning ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi.

SOY, SAY, SAYR, CHAY - shag'al, shag'alli oqiziqalar, sayoz, quruq o'zan, jarlik, jarlikdagi soy, daryo (turk., mo'g'). [16]. Mahmud Koshg'ariyga tayangan holda saj-"qora toshli yer", "cho'l tekisligi"; saj jazi-"tekislik", "toshloq tekislik"; sajram, sajram suv—"sayoz, sayoz suv" deb izohlangan. [12]. Turkiya va Ozarbayjonda chay (cay)– "daryocha", "daryo". Turk tilida katta daryo uchun irmoq va arabcha nehir atamasi ham qo'llaniladi. Ozarbayjoncha "chaylag"—"quruq o'zan", "chaybasar"—"qayir", "daryo bilan to'lib-toshgan past terrasa"; "chayag'zi" aynan "daryo og'zi", "og'iz"; "chayg'olu"—"oqim", "daryo tarmog'i". Ozarbayjon tilida "chay" bilan birga "say"—"sayoz joy" ham bor. Daryolari kam bo'lgan Turkmanistonda "chay"—"dara ichidagi daryo", "quruq o'zan", "jar" va kamdan-kam hollarda "quduq" deb ataladi. Turkmanistonning sharqida "quruq o'zan", "to'sin", ba'zan "kichik daryo", "qayir" ma'nolarida say shakli ustunlik qiladi. Qirg'izcha "say" atamasi—"qurigan yoki qurib borayotgan daryo"; sayang—"qayir", "kosa"; sayroon—"suvsirak joy", "shovqinli oqim", "daryodan qulay kechib o'tish"; oltoycha "say"—"sayoz joy", "shag'al"; xakascha "say", "zay"—"sayoz joy", "sayoz", "shag'al", "daryoning quruq o'zani", "jarlik", "irmoq"; Yoqutchasi "chay"—"ko'l yoki daryoning tekis qirg'og'i", "qirg'oq sayozligi", "yirik qum", "shag'al", "mayda tosh"; Tuvacha "say", "sayr"—"mayda tosh", "quruq o'zan", "daryocha". O'zbek tilidagi "soy" va "say" shakllari—"tog' daryosi", "vodiy"; qo'miq va no'g'ay tilidagi "say"—"daryocha", "buloq", "mayda", "chuqur bo'lmagan". Uyg'urchasida "say"—"daryo o'zani", "toshloq cho'l" yana o'sha-sayliq. Geograf olim, toponimist va geografiya tarixchisi E.M.Murzayevning yozuvlariga ko'ra, Tarim cho'kmasidagi soy va sayliklar deb Taklamakon qumlari bilan ularni o'rab turgan tog'lar orasida yastanib yotgan shag'alli, toshli, chaqiq toshli, qisman qum bosgan tog' osti cho'l tekisliklariga aytiladi. Boshqirdchasida "hay"—"chuqur emas", "sayoz"; tatarcha "say"—shu holat. Xalxa-mo'g'ulcha "sayr"—"quruq o'zan", "kichik daryoning quyi qismi bo'lib, suvlari quyilish joyigacha yetib bormaydi, qurib qoladi va o'z oqiziqalari-shag'al, mayda tosh, qumlarni yoyilma konuslarida

qoldiradi”, “sayoz joy”. “Sayr”lar faqat yomg’ir yoqqanda yer usti suvlariga ega bo’ladi. Bu so’z tuvaliklar tomonidan sair shaklida o’zlashtirilgan. Yakunda “r” harfi qanday paydo bo’ldi? Turkiy-mo’g’ul tilidan tashqarida afg’oncha “say”– “soy”, “daryocha”, caz- “quduq”; tojikcha “soy”–“jarlik”, “o’ra”ni qayd etadi. Bu atama rus mintaqaviy geografik adabiyotlarida keng qo’llaniladi va “Ensiklopedicheskiy slovar geograficheskix terminov” [1968]ga kiritilgan[17; 339]. Hududning tabiiy, geografik joylashuviga nazar solsak, Quvasoyning asosiy suv manbasi shahar markazidan janubiy-sharqda taxminan 60 km uzoqlikda Kichik Oloy tizmasidan boshlanadigan Isfayramsoy daryosi hisoblanadi.

Shahar markazining chegaralaridan “janubiy-sharqiy” yo’nalishda bir kilometr masofada, muhandislik tipidagi suv taqsimlagich orqali Isfayramsoy ikki tarmoqqa bo’linadi.

a) Biri Isfayramsoy nomi o’z o’zanida davom etadi, suvning asosiy qismini o’zida saqlaydi. U shahar markazi “janubiy” qismining tabiiy chegarasi bo’lib xizmat qiladi.

b) Isfayramsoyning tabiiy o’zani aynan hozirgi Quvasoy shahri chegarasida shimol tomonga tabiiy o’zan sifatida ajralgan. Ya’ni hozirda “Quvasoy” deb atalgan tarmoq Isfayramsoyning tabiiy tarmog’i. Bu daryoning tabiiy tarmog’i faqat 1939 yilda Katta Farg’ona kanalini qurilishi davridagina o’zining ahamiyatini qisman yo’qotdi. Bu daryo irmog’ini “Quvasoy” deb atalishining asosiy sababi eng qadimgi zamonlardan 1939 yilgacha Quva shahri va uning atroflarini sug’orishidan kelib chiqqan. Hozirgi Quvasoy haqiqatdan ham hozirgi Quvasoy shahrining janub tarafidan kelib, uning ichidan shimol tomonga ajraydi[18].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Quvasoy toponimining etimologiyasi shakllanishida bir nechta ilmiy yondashuv ilgari surish mumkin bo’ladi:

1. Etnonimga asoslangan qarash – “Quva” so’zi qadimgi turkiy qavm nomi. Etnograf K.Sh.Shoniyozov o’rta asrlarda qipchoqlar tarkibida mustaqil quba (quva) qabilasi bo’lgan deydi. Quba (quva) –umumturkiy etnonim. Qirg’izlarning cherik qabilasi tarkibida quba degan yirik urug’ bo’lgan. Cherik qabilasi genetik jihatdan bo’lmasa-da, tarixan o’rta asr qipchoqlari bilan bog’liq bo’lib, bu haqda quyida biroz

to’xtalib o’tamiz. O’zbeklarning qo’ng’irot urug’-qabila uyushmasida ham “quva” shaklidagi “quba” etnonimi mavjud. So’nggi qipchoqlarda, shuningdek, qo’ng’irot va qirg’iz-ichkilik o’zbeklarida “quba (n)” etnonimining mavjudligi o’rta asr qipchoq-qipchoqlari tarkibida mustaqil qabila yoki urug’-qabilaviy birlashma bo’lganligi haqidagi taxminimizni tasdiqlashi mumkin [19].

Shunga asosan, Quvasoy toponimi qo’shma toponim nazariyasi asosida “etnonim + gidronim” tarkibidan tashkil topgan bo’lib, u joyda Quva nomli qabilaning istiqomati va soy orqali ajralib turgan geografik hududni bildiradi. “Quvasoy” atamasining kelib chiqishi bu juda oddiy bo’lib, “Quva shahrini sug’oradigan soy” desak to’g’ri bo’ladi. Bunday nomlash uslubi turkiy xalqlar joy nomlarida keng tarqalgan va ularning tarixiy-etnik yodgorligi sifatida ahamiyatga ega.

2. Semantik-tabiiy yondashuv – “Quva” so’zi tabiiy xususiyatlarni ifoda etadi. Qadimgi turkiy tilda “quba” so’zi och jigarrang, samansimon rangni anglatgan va “quba at” birikmasida bu ma’no ot teri rangini bildirgan. Agar Quvasoy toponimidagi “quva” shunday leksik manbadan kelib chiqqan bo’lsa, u holda bu nom joyning tabiiy rangi, tuproq xossasi bilan bog’liq semantik-tabiiy toponim hisoblanadi. Agar “Quva” so’zi aynan shu rangdan kelib chiqqan bo’lsa, u holda Quvasoy — “och jigarrang tuproqli hudud orqali oquvchi soy” ma’nosida bo’lishi mumkin.

Shuningdek, Quva shahri xitoy manbalardagi “xumin”ga tenglashtiriladi. Bu atama xitoycha talaffuz varianti bo’lsa ham Sh.S.Kamoliddin turkiyda “ko’mir”ga taqqoslagan. Yoxud “Bobumoma”da “Quboning botqoqli qora suvi bor, ko’prigidan boshqa o’tib bo’ladigan joyi yo’q...” [20] ta’rif etilgan. Bu esa o’z navbatida ushbu hudud naqadar tabiiy geologik, geografik boy makon ekanligini ko’rsatadi.

Yuqorida ko’rsatilgan, har bir qarash o’z ilmiy asosiga ega bo’lib, ularning qiyosiy tahlili orqali Quvasoy toponimining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash mumkin. Kelgusida lingvistik, arxeologik va etnografik tadqiqotlar asosida toponimning kelib chiqishi borasida yanada aniqroq xulosalar chiqarish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2022. B.190.
2. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дис. кан. фил. наук.– СПб., 2004; Баскаков Н.А. Северные диалекты алтайского (ойротского) языка. Диалект черневых татар (туба-кижи). Грамматический очерк и словарь. М., 1966; Молчанова О.Т. Топонимический словарь Горного Алтая, Горно-Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979; Донидзе Г.И. Гидронимические термины в тюркских языках// Ономастика. М., Наука, 1969; Мурзаев Э.М. Избранная тюркская географическая лексика // Ономастика Востока. М., 1980; Мурзаев Э.М. - Словарь народных географических терминов. М., Мысль, 1984; Korayev S. O’zbekiston viloyatlari toponimlari - T., O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005; Ahmadaliyev Yu.I. Farg’ona viloyati toponimlari. O’quv uslubiy qo’llanma. – Farg’ona, Farg’ona nashriyoti, 2009; Kamoliddin Sh.C. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Т., Шарк, 2006; Шаниязов К.Ш. К этнической истории Узбекского народа, Т.,1974.
3. Ahmadaliyev Yu.I. Farg’ona viloyati toponimlari. O’quv uslubiy qo’llanma. – Farg’ona: Farg’ona nashriyoti, 2009, B.9;
4. Korayev S. O’zbekiston viloyatlari toponimlari – Toshkent, O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005, B.163;
5. Ibrat Is’hoqxon Junaydulloxoja o’g’li. Farg’ona tarixi. – B.278-279.
6. Камолитдин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент, Шарк, 2006, С.85;
7. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дис. кан. фил. наук.– СПб., 2004, С.192;
8. Otaxo’jayev A. Farg’ona vodiysi toponimari etimologiyasi haqida mulohazalar. – Andijon: ADU, Ilmiy xabarnoma, 2012, №1, B.88;
9. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford. At the Clarendon Press, 1972 (англ.), P.581;
10. Баскаков Н.А. Северные диалекты алтайского (ойротского) языка. Диалект черневых татар (туба-кижи). Грамматический очерк и словарь. Москва, 1966, С.131;
11. Молчанова О.Т. Топонимический словарь Горного Алтая, Горно-Алтайское отделение Алтайского книжного издательства, 1979, С.57;
12. Qoshg’ariy, “Devonu lug’otit turk”, O’zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent, 1963, B.173,191;

13. Баскаков Н.А. Географическая номенклатура в топонимии Горного Алтая // Топонимика Востока. Исследования и материалы. М.: Наука, 1969.; Донидзе Г.И. Гидронимические термины в тюркских языках // Ономастика. М.: Наука, 1969, С.166;
14. Qoshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”, 1-jild,,O‘zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent, 1960, B.110,111; / 3-jild, O‘zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent, 1963, B.193;
15. Мурзаев Э.М. Избранная тюркская географическая лексика // Ономастика Востока. Москва, 1980, С.81;
16. Древнетюркский словарь, Издание второе, пересмотренное, «Фылым» баспасы, Астана-2016, С.511;
17. Мурзаев Э.М. - Словарь народных географических терминов.- Москва. Мысль, 1984.- 653 с., ил. , С.399;
18. Farg‘ona viloyati davlat arxivi –2151-jamg‘armasi, 1-po‘uxat, 55-ish, 7-varoq;
19. Шаниязов К.Ш. К этнической истории Узбекского народа, Ташкент, 1974, С.29;
20. Boburnoma, “O‘qituvchi” NMIU, Toshkent, 2008, B.399.